

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI № 19212

2022 yil «16» *qonun*

Samarqand shahri

MUNAVVAR NUR BARAKA XK (keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb yuritiladi) o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi direktori I.T.Zaripov bir tomondan va *59-1011 ko'chasi Samarqand shahri* (keyingi o'rinda - «Sotib oluvchi») nomidan, Nizom asosida ish yurituvchi rahbari ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Sotuvchi» o'ziga tegishli bo'lgan tovar (ish, xizmat)ni ushbu Shartnomaga asosan «Sotib oluvchi»ga mulk qilib topshirish, «Sotib oluvchi» esa tovar (ish, xizmat)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda qo'yidagi majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

	Tovar (mahsulotlar nomi)	O'lcho v birligi	Soni	Narxi	Bahosi	KKS		Jami
						Stav ka	Summa	
1	Моноблок Core i5	шт	5	6843478.26	34217391.30	15%	5132608.70	39 350 000
	Jami							39 350 000

3. SHARTNOMA NARXI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

- 2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi 39 350 000 (o'ttiz to'qqiz million uch yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi.
- 2.2. Sotib olinadigan Tovar (mahsulot, ish, xizmat) uchun oldindan to'lov miqdori 30 foizini tashkil qiladi. Tovar (mahsulot, ish, xizmat) summasining 70 foizi miqdoridagi yakuniy to'lov mahsulot to'liq «Sotib oluvchi»ga yetkazib berilgandan so'ng hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.
- 2.3. Shartnoma bo'yicha to'lov «Sotib oluvchi»ning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachilikdagi hisob raqami orqali naqd pulsiz shaklda pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 3.1. «Sotuvchi»ning majburiyatlari:
 - 3.1.1. Tovar (mahsulot, ish, xizmat)ni shartnoma talablariga javob beradigan holatda Sotib oluvchiga shartnomaning 2.1-bandida nazarda tutilgan to'lovning 30 foizi amalga oshirilgandan so'ng 5 (besh) bank ish kunida «Sotib oluvchi» talabiga javob beradigan holda yetkazib berish.
 - 3.1.2. Tovar (mahsulot, ish, xizmat)larning sifati ushbu guruxi uchun amaldagi standartlarga muvofik kelishiga javob berish.
 - 3.1.3. «Sotuvchi» to'plamda yaroqsiz, sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar (mahsulot, ish, xizmat) mavjudligi xakida xabar olgan paytdan boshlab 3 (uch) kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot, ish, xizmat)ni sifatisiga almashtirish yoki ushbu shartnomaning 1.1.-bandidagi jadvalga muvofiq sifati lozim darajada bo'lmagan tovarning pulini to'liq qaytarib beradi.
 - 3.1.4. «Sotuvchi» O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tovar (mahsulot, ish, xizmat)ga bo'lgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.
- 3.2. «Sotib oluvchi»ning majburiyatlari:
 - 3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovarni miqdori, sifati va butlanishi bo'yicha qabul qilish beradi.
 - 3.2.2. Sifati lozim darajada bo'lmagan tovar (mahsulot, ish, xizmat) keltirilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 (uch) kun ichida «Sotuvchi»ni xabardor qiladi.
 - 3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini to'lash.

4. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

- 4.1 Shartnoma shartlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar vakolatli vakillar imzolashi orqali kiritiladi va uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.
- 4.2. Shartnoma amaldagi qonunchilik o'zgartirishida, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnomaning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

- 5.1. «Sotuvchi» shartnomada belgilangan majburiyatlarini to'liq bajarmagan taqdirda «Sotib oluvchi» shartnoma doirasida o'tkazib bergan barcha pul mablag'larni qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Shunday holatda «Sotuvchi» sotib oluvchining talabi kelib tushgandan 10 (o'n) kun ichida mazkur pul mablag'larini qaytarib beradi.
- 5.2. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining, shuningdek butlanmagan tovarni topshirganlik uchun aybdor taraf tovar qiymatining 20% miqdorida jarima to'laydi.
- 5.3. Neustoykani to'lash tarafdami shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod kilmaydi.
- 5.4. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar mahsulotlar narxi yukori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq (tafovut) «Sotuvchi» tomonidan ko'plab beriladi.
- 5.5a. «Sotuvchi» «Sotib oluvchi»ning talabi kelib tushgandan 10 (o'n) kun ichida yuqoridagi pul mablag'lari (penya, neustoyka, jarima, aniqlangan narxlar o'rtasidagi farqni) ni to'lab beradi

6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 6.1. Shartnoma Taraflar uni imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil «31» dekabr kuniga qadar amal qiladi.
- 6.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxada beriladi.
- 6.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:
 - Tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq;
 - O'zbekiston Respublikasining amaldagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda;
 - Fors-Major holatlarida

7. NIZOLARNI HAL QILISH

- 7.1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlarida asosida javobgar bo'lalilar.

7.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro ikki tomonlama kelishuv va muzokaralar asosida, agar taraflar kelishuvga erisha olmasalar shartnoma doirasida yuzaga kelgan nizolar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va Fuqarolik kodeksiga asosan Sud tartibida hal qilinadi

8. FORS – MAJOR

- 8.1. Taraflardan biri shartnomaning yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda muayyan sharoitida oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, harbiy nizolari, ichki tartibbuzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors-major tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo'lmaydi.
- 8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida taraflar bir-birini ushbu vaziyat yuzaga kelganligi ma'lum bo'lgan kundan boshlab **5 (besh)** kun ichida ogohlantirishlari lozim.
- 8.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaziyatda, majburiyatlarni bajarish muddatlari ushbu vaziyatlar va ularning oqibatlari bartaraf etilunga qadar uzaytiriladi.

9. ALOHIDA SHARTLAR

- 9.1. Mazkur Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va shartnoma dastlab qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, taraflar uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi va taraflar tomonidan imzolaniishi kerak. Shuningdek shartnoma summasini o'zgarishiga sabab bo'lgan asoslar (hujjatlar) tovar yetkazib beruvchi tomonidan asoslantirilgan holda yozma ravishda taqdim etiladi.
- 9.2. Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.
- 9.3. Ushbu shartnoma imzolanganidan to 2022 yil «31» dekabr kunigacha 2 nusxada tuzildi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, Samarqand viloyat G'aznachilik boshqarmasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

10. TOMONLARNING YurIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Ta'minotchi»

«Iste'molchi»

MUNAVVAR NUR BARAKA XK

59-сон махфус ҳисоб китоби

(mol yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: Samarqand shaxar Gagarin kuchasi 70 uy
 h/v 20208000304815909001
 Bank nomi Kapitalbank ATB banking Samarkand fil.
 MFO 01061 STIR 301376361
 OKONX
 Tel/faks: 93 7200320

Самарқанд ш. У. Доджодов 30
И/К 1000218601840170 914 000 75009
С/УР - 201407607 О/К/К 92310
Момеҳ 1503000000 Яқонга 1991ка ҳисоб берилди
192 х/б 23462000300100001010
Қўриққон банк ХК/К. 70 ш. у. Тош. Доғ. сар
С/УР 201122919



Rahbar **I.T. Zaripov**

(imzo)
M.O.



Rahbar **A. Menev**

(imzo)
M.O.

« 16 » *сентябрь* 2022 y.

« 16 » *сентябрь* 2022 y.

Huquqshunos (IMZO va F.I.Sh): *[Signature]*

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi: _____